

INGLIZ TILINI MUSTAQIL RAVISHDA O'RGANISHDA YO'L QO'YILAYOTGAN XATOLAR

Ummataliyeva Guli

**O'zbekiston Davlat jahon tillari universiteti Xorijiy filologiya 2-Fakulteti Xorijiy til va
adabiyot: ingliz tili kafedrası I bosqich talabasi 2201-guruh talabasi**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7602904>

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada ingliz tilini mustaqil o'rganishni boshlagan o'rganuvchilar duch keladigan qator xato va kamchiliklar hamda ularni bartaraf etish haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, ingliz tilini individual o'rganishning tezkor va oson usullari muhokama qilinadi. Kalit so'zlar: internet savodxonligi, chet tillari, mustaqil ta'lim, "self-study", bo'shliqlar, material

Hammamizga ma'lumki, hozirgi tez rivojlanib borayotgan globalashuv jarayonida chet tillarini o'rganishga bo'lgan ishtiyoq kundan-kunga oshib bormoqda. Oxirgi yillarda til kurslari soni ham sezilarli darajada ko'paygan. Ammo tilni mustaqil o'rganayotgan yoshlar ham oz emas. Afsuski, ingliz tilini yakka tartibda o'rganishni boshlagan ko'p o'rganuvchilar til kurslarini muvaffaqiyatli tamonlagan deb ayta olmaymiz. Bir qator kamchiliklar yoxud muammoli vaziyatlar sababli tilga bo'lgan ishtiyoqlari susayganligi mubolag'a emas. Adabiyotlarda ham mustaqil ta'limning afzalliklari hamda yutuqlari haqida ko'p so'z yuritilgan.

Mustaqil o'rganish jarayonida til o'rganuvchi qiladigan eng boshlang'ich xatolardan biri sabrsizlik hisoblanadi. Negaki, yolg'iz yo'lga chiqqan insonda rag'batlantiruvchi ham o'rganuvchi ham bitta inson bo'ladi. Til o'rganish uzoq muddatli jarayon hisoblangani sababli, tez natija ola olmagan izlanuvchida voz kechish hissi uyg'onadi va qiziqishi susayadi. Bundan tashqari, internet savodxonligining yoshlar orasida sustligi ularni ko'p imkoniyatlardan cheklab qolayotgani shubha emas. Internet savodxonligi raqamli texnologiyalardan foydalangan holda ma'lumotlarni joylashtirish, tartibga solish, tushunish, baholash va yaratish qobiliyatini anglatadi. Bugungi kunda internetdan unumli foydalanish tufayli zamonaviy kasblar ham professional tarzda o'rganilyapti, Ingliz tilini ham mustaqil o'rganishni boshlagan o'rganuvchida qo'rquv bo'lishi tabiiy holat, ammo internet savodxonligining yuqoriligi unga tilni rangli, har xil, kreativ va intensiv usullarda tez o'zlashtirishga yo'l ochadi.

Shuningdek, tabiatan erkinlikni xush ko'radiganlar uchun ham "self-study" ayni muddao. Chunki o'quv markazlariga borib, til o'rganayotgan yoshlarda aynan shunday turdagi odamlar sevadigan erkinlik yo'q. Ular o'qituvchilari tomonidan berilgan topshiriqlarni so'zsiz bajarishga majbur. Ularda tanlov huquqi yo'q (material zerikarli bo'lsa ham vazifa bajarilishi zarur). Masalan, ingliz tiliga yo'naltirilgan ba'zi kitoblardagi qadimgi ko'prik qanday qurilgani, qandaydir Amazoniyada yashaydigan qo'ng'izlar haqidagi tekstlar erkin til o'rganuvchilar uchun qiziq bo'lmasligi mumkin. Shuning uchun ham, til o'rganishni zavq oladigan mashg'ulotga aylantirib olish maqsadga muvofiq. Nima uchun qiziqishga urg'u berilyapti? Chunki, ekspertlar shuni isbotlaganki, o'qiyotgan material kitobxonni qanchalik qiziqitirsa, kitobxon miyasi shu material ichidagi ma'lumotlarni shunchalik tezroq va ko'proq "ushlab qoladi". Bu aynan til o'rganishdagi oltin qoidalardan biri. Motivatsiyani ham til bilimdonlari o'rtasidagi asosiy omillardan biri deyish mumkin. Ingliz tilini o'rganish, umuman yangi til o'rganish kuchli iroda va sabr talab qiladi va o'quvchilarning sabrsizligi va tezroq natijaga erishishga intilishi ko'p hollarda tilni mukammal o'rganishga to'sqinlik qiladi. Buning asosiy

sababi deb oilalardagi muhit, farzand tarbiyasidagi bo'shliqlarni keltirishimiz mumkin. Ota-ona farzand kamoloti davomida bu kabi holatlarga yo'l qo'ymasligi darkor.

References:

1. Akis Davanellos (2001), Film Time, Iguana Press
2. Alessi Stephen, Trollip Stanley (2001), Multimedia for Learning; Methods and Development,
3. Allyn & Bacon, Boston, MA
4. Beckert Christine (1992), Getting Started in Mass Media, National Textbook Company, Chicago, IL
5. Biagi Shirley (1999), Media / Impact, Wadsworth, New York
6. Biagi Shirley (1996), Media Reader, Wadsworth, New York
7. Davies (1992), Multimedia Support for Studies in FL and Culture', IBM
8. Garrett (1991), Technology in the Service of Language Learning, Modern Language Journal
9. Jane Sherman (2002), Using Video in the Language Classroom, CUP
10. Gavin Dudeney (2003), The Internet and the Language Classroom, CUP
11. Marion Geddes (1988), Video in the Language Classroom, Heinemann
12. Merrill Paul (2002), Computers in Education, Allyn & Bacon, Boston, MA
13. Morrison Gary, Lowther Deborah, DeMeulle Lisa (1999), Integrating Computer Technology into the Classroom, Prentice-Hall, Inc, New Jersey
14. Norton Precilla, Sprague Debra (2001), Technology for Teaching, Allyn & Bacon, Boston, MA
15. Paul Sanderson (2002), Using Newspapers in the Classroom, CUP
16. Philippa Thompson (2000), The Primary English Magazine, February
17. Ryder James Randall, Hughes Tom (1998), Internet for Educators, Merrill Prentice-Hall, New Jersey
18. Tomei A. Lawrence (2002), The Technology Facade, (Overcoming barriers to Effective Instructional Technology), Allyn & Bacon, Boston, MA
19. UNESCO Declaration of Media Education, Grunwald, FRG, January 1982
20. Willets (1998), 'Integrating Technology into the Foreign Language Curriculum', A teacher training manual, Washington, Center for Applied Linguistics